

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ilova qurilmalar semantikasi

Sobirova Nigina Aliyevna

“Chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko‘chasi 1-uy, Tashkent 100149, O‘zbekiston

(niginasobirova2024@gmail.com)

Pedagogika fakulteti BT21-S-04(D) guruh talabasi

Doliyeva Samida Abdumajidovna

Kalit so‘zlar: *Ilova qurilmalar, parsellyatsiya, formal xususiyat, semantik xususiyat, tipologiya.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola tilshunoslikning stilistika yo‘nalishi uchun dolzarb masalardan biri bo‘lgan ilova qurilmani tilshunoslikdagi til hodisasi sifatida o‘rganilmoqda. Ingliz va o‘zbek tillarida til hodisalari til va nutq masalalari bilan bevosita bog‘liq. Aynan shu jihatdan ilova qurilma hodisasi til masalalarida o‘ziga xos xususiyatga ega. Ilova qurilma lisoniy hodisa bo‘lib, so‘zlovchining oldindan o‘ylanmagan biroq qo‘shimcha ravishda bayon etilgan keyingi fikri. U oldingi gapning asosiy ifoda mazmunini kengaytiradi, reallashtiradi, to‘ldiradi va unga aniqlik kiritadi. Bu hodisa orqali so‘zlashuv jarayonida asosiy gapda chala bo‘lib qolgan va aytilishi nihoyatda zarur hisoblangan izoh to‘ldirilishi mumkin. Ilova qurilmani o‘rganish jarayonida, tilshunoslikdagi qator shu kabi yondosh hodisalar bilan munosabati, ular orasidagi o‘xshash va farqli jihatlar muayyan munozaralarga sabab bo‘layotgani ma‘lum bo‘ldi. Mazkur maqolada ilova qurilmalarning ba‘zi bir yangi xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Key words: *Detached construction, parcellation, formal feature, semantic feature, typology.*

Abstract: *This article examines the detached construction as a linguistic phenomenon in linguistics, which is one of the topical issues for the stylistics direction of linguistics. Language phenomena in English and Uzbek are directly*

related to language and speech issues. It is possible that the phenomenon of the detached construction has its own characteristics in language matters. An adverbial device is a linguistic phenomenon, a speaker's unintended but additionally stated afterthought. It expands, realizes, completes and clarifies the content of the main expression of the previous sentence. By means of this phenomenon, in the course of the conversation, an explanation that is left incomplete in the main sentence and is considered extremely necessary to be said can be filled. In the process of studying the application device, it became clear that its relationship with a number of similar phenomena in linguistics, the similarities and differences between them, are causing certain discussions. This article discusses some of the new features of the app.

Dunyo tilshunosligida lisoniy hodisalarning nutqiy muloqot sharoitida o‘zaro tanlab olinishini ta’minlovchi asosiy omillarni qiyosiy-chog‘ishtirma yondashuv asosida tizimli ravishda tadqiq qilish amaliyotiga e’tibor kuchaygan. Shu jihatdan, mazkur hodisa qator tillarda yillar davomida tajribalarga yo‘g‘rilgan tadqiqotlar shaklida o‘rganilib kelinmoqda. Bu muammo Yevropa xalqlari tillari misolida yetarlicha o‘rganilmaganligini ko‘rish mumkin. Ilova hodisasini o‘rganish muammosi va u bilan bog‘liq masalalar rus tilshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilgari surilgan. Ta’kidlanganidek, bu hodisa Yevropa xalqlari tillarida deyarli o‘rganilmagan. Shunga qaramay, qiyosiy tipologik tilshunoslik hukm surgan XIX asrda tillarni taqqoslab o‘rganish masalasi tilshunoslikning e’tibor markazida bo‘lgan. XX asrda ilova qurilma hodisasining tilshunoslikda rivoj topishi va tilda asosan uning formal va semantik jihatdan o‘rganilishiga bo‘lgan harakat uni bir nechta tillarda qiyoslab-chog‘ishtirib o‘rganish xususiyatlari bilan birgalikda tatbiq etishga e’tiborni kuchaytirdi. Tadqiqotimizda ingliz va o‘zbek tillaridagi ilova qurilmalar tipologiyasi, ularning formal va semantik xususiyatlari hamda ularning o‘zaro tarjimalarda berilishi kabi jihatlariga ilmiy yondashib tadqiq qilishga urindik.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator o'zgarishlar tilshunoslikka ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mamnuniyat bilan aytish lozimki, o'zbek tilshunosligida bugungi kunda qilinayotgan islohotlar samarasi ularning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur hodisaning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Uning "ilova qurilmalar nomi" ostida tadqiq qilinishi hamda boshqa til birliklari bilan taqqoslanib o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo turli qurilishli tillardagi ilova qurilmaning xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda tilshunoslikda hali to'laqonli yechimini topmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zotan, bu borada bajarilgan ishlar mavjud bo'lsa-da, uning mohiyati to'liq o'rganilmagan. Bu holat uning yangi qatlamlarini ochishga turtki bo'ladi. Ilova qurilma hodisasini o'rganishda uni boshqa tillar bilan taqqoslash, ularning munosabatini chuqur anglashga oid tadqiqotlar olib borish tilshunoslikda, katta ehtimol bilan, talay savollarga sabab bo'layotgan muhim masalalardan biri deb qarash mumkin.

Ilova hodisasi hozirgi kungacha qanchalik o'rganilish tarixiga ega bo'lmasin, u doimo har qanday tilshunoslik fani doirasida eng muhim, kam o'rganilgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi. Chunki ilova hodisasi nazariyasining tarafdorlari bu mavzuga ko'pincha, J.B. Bo'ronovning ta'biri bilan aytganda, yuzaki yondashishga harakat qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, ilova qurilmaning lingvistik mohiyatini, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina xususiyatlarni (strukturaviy, ma'noviy, tipologik, fonetik va boshqalar) grammatika fani nuqtayi nazaridan yechishga harakat qilishadi-yu, biroq unga bog'liq bo'lgan bunday xususiyatlarni matn nuqtayi nazaridan talqin etishmaydi. Natijada ilova qurilmaning ko'p tomonlari izlanish doirasidan chetda qolganday tuyuladi. Ba'zi hollarda ilova qurilmaning semantik, uslubiy va boshqa xususiyatlari alohida o'rganiladi, lekin ularning ana shunday xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ichki qonuniyatlari izlanish doirasidan chetda qolaveradi. Demak, ilova hodisasini o'rganishga nisbatan bo'lgan bunday munosabat kutilgan natijaga olib kelmaydi. Ko'p

hollarda keltirilgan ilovali elementlar qolgan barcha yuqorida tahlil qilingan ilovali elementlardan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi bilan farq qiladi. Bu farq ularning ana shu murakkab sintaktik butunlik tarkibida o'zlariga bevosita bog'liq bo'lgan komponentlarga nisbatan tutgan pozitsiyasi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu ilovali elementlar "sof bo'lmagan" ilovali elementlar deyiladi, chunki ular o'zlari konkretlashtirib, reallashtirib kelayotgan komponentga nisbatan ancha uzoq masofada turibdi. Bu ilovali elementlar bilan ular bevosita bog'liq bo'lgan komponentlar o'rtasida oraliq gaplar mavjud, natijada boshlangan fikr bo'lingan. Ilovali elementlarning asosiy ifodaga nisbatan ma'lum masofada turishi bir qator sintaktik-semantik va stilistik funksiyalarni bajaradi: birinchidan, matn me'morchiligi shakllanadi; ikkinchidan, ilovali elementlar bilan asosiy ifoda orasida sintaktik-semantik aloqadorlik mavjud, bunday hollarda semantik aloqa vositalari yetakchi rol o'ynaydi; uchinchidan, bir misoldagi ilovali element boshqa bir misoldagi ilovali elementga nisbatan masofa jihatidan uzoq bo'lsa ham, ma'no jihatidan yaqin turadi, sababi ular oralig'idagi gaplar qandaydir mazmun jihatidan asosiy ifodada aytilgan fikrni davom ettiradi; boshqa misolda aksincha, bunday holat sezilmaydi, shu sababli bu ilovali element ham masofa jihatidan, ham ma'noviy jihatdan asosiy ifodaga nisbatan uzoqroq turadi.

ADABIYOTLAR

1. Is'hoqov F. Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovali qurilmalar // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob. – Toshkent: O'zR FA, 1961. – B. 285-289
- 2 . Maskopov B. O'zbek tilidagi ilova qurilmalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1970. – №6. – B. 50- 54.; Maskopov B. O'zbek tilshunosligida ilova qurilmalar masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1973. –№5. – B.49-52.
3. Abdullayev A. Ilova ko'chirma gapli qurilmalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №2. – B. 50-52..
4. Turopova M. Ilova qurilmaning boshqa sintaktik qurilmalardan farqi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1980. – №1. – B. 53-56.

5. G'afforov A.A. Hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi: Filol. fanlari. Nomzodi. diss. avtoref. – Samarqand, 1997. 26b.
6. Maxmudova Sh.M. Developing student competence in use English common idiomatic language in English lesson/ Academia science Journal of Educational Discoveries and Lifelong №1 p. 69-71.
7. Худайкулова Ф. Х Роль и место педагогических технологий в современном образовании. / Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги мирзо улуғбек номидаги ўзбекистон миллий университети ижтимоий фанлар факультети янги ўзбекистонда педагогика фанини инновацион ривожлантириш истиқболлари: назария ва амалиёт конференция. С. 265.